16.	<p>Э.Н. Ташкенбаева, С.Н. Мухтаров, Э.Э. Эргашзода Клинико-прогностическое значение нарушений функции почек в прогрессировании ишемической болезни сердца и разработка клинико-ориентированной системы поддержки принятия решений на основе искусственного интеллекта E.N. Tashkenbaeva, S.N. Muxtarov, E.E. Ergashzoda Clinical and prognostic significance of renal dysfunction in the progression of ischemic heart disease and development of an AI-based clinical decision support system Э.Н. Ташкенбаева, С.Н. Мухтаров, Э.Э. Эргашзода Yurak ishemik kasalligi rivojlanishida buyrak funksiyasi buzilishining klinik-prognostik ahamiyati va sun'iy intellekt asosida klinik qaror qabul qilish tizimini ishlab chiqish.....</p>	83

17.	<p>Э.Н. Ташкенбаева, А.И. Мухиддинов, Ш.Х. Бекмуродов, М.А. Мухтарова, А.Ф. Уралов, Ш.А. Усаров Методы и критерии диагностики артериальной гипертензии у пациентов с риском кардиоренальных осложнений E.N. Tashkenbaeva, A.I. Mukhiddinov, Sh.Kh. Bekmurodov, M.A. Mukhtarova, A.F. Uralov, Sh.A. Usarov Diagnostic methods and criteria for hypertension in patients at risk of cardiorenal complications E.N. Tashkenbaeva, A.I. Muxiddinov, Sh.X. Bekmurodov, M.A. Muxtarova, A.F. Uralov, Sh.A. Usarov Kardiorrenal asoratlar xavfi bo'lgan bemorlarda arterial gipertenziya kasalligini tashxislash usullari va diagnostik mezonlari.....</p>	88
18.	<p>С.К. Туйчиева, Э.Н. Ташкенбаева Клинико-иммунологические особенности ишемической болезни сердца у женщин в зависимости от наличия метаболического синдрома S.K. Tuychieva, E.N. Tashkenbaeva Clinical and immunological features of ischemic heart disease in women depending on the presence of metabolic syndrome S.K. Tuychiyeva, E.N. Tashkenbaeva Ayollarda metabolik sindrom mavjudligiga bog'liq holda yurak ishemik kasalligining klinik-immunologik xususiyatlari</p>	93
19.	<p>Ф.О. Хасанжанова, Ж.А. Ризаев, Э.Н. Ташкенбаева Реабилитации больных трудоспособного возраста после комплексной коррекции ИБС на фоне аномальных отхождений коронарных артерий F.O. Xasanjanova, J.A. Rizayev, E.N. Tashkenbaeva Mehnatga layoqatli yoshdagi bemorlarda YuIKni koronar arteriyaning anomal chiqishlari fonida kompleks korreksidan keyingi reabilitatsiyasi F.O. Xasanjanova, J.A. Rizayev, E.N. Tashkenbaeva Rehabilitation of working-age patients after comprehensive correction of coronary artery disease in the presence of anomalous origin of the coronary arteries.....</p>	98
20.	<p>У.Е. Чарипова, Д.М. Рахманова, Т.А. Арыстанова Фармакологическое обоснование комбинированного применения статинов и глицирризиновой кислоты U.E. Charipova, D.M. Rakhmanova, T.A. Arystanova Pharmacological rationale for the combined use of statins and glycyrrhizic acid U.E. Charipova, D.M. Rakhmanova, T.A. Arystanova Statinlar va glitsirrizin kislotasining kombinatsiyalangan qo'llanilishining farmakologik asoslari.....</p>	102
21.	<p>С.Х.Ярмухамедова Особенности эхокардиографических и молекулярных показателей у больных артериальной гипертензией S.Kh. Yarmukhamedova Characteristics of echocardiographic and molecular parameters in patients with arterial hypertension S.X. Yarmuhamedova Arterial gipertenziya bilan bemorlarda ekokardiografik va molekular parametrelarning xususiyatlari.....</p>	109

ISSN: 2181-0974
www.tadqiqot.uz**JOURNAL OF CARDIORESPIRATORY RESEARCH**
ЖУРНАЛ КАРДИОРЕСПИРАТОРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ**Хасанжанова Ф.О.**доцент кафедры внутренних
болезней и кардиологии №2,
Самаркандский государственный
медицинский университет, PhD,
Самарканд, Узбекистан**Ризаев Ж.А.**Ректор Самаркандского государственного
медицинского университета, д.м.н., проф., Самарканд, Узбекистан**Ташкенбаева Э.Н.**Заведующая кафедрой внутренних
болезней и кардиологии №2,
Самаркандский государственный
медицинский университет, д.м.н., проф.,
Самарканд, Узбекистан**РЕАБИЛИТАЦИИ БОЛЬНЫХ ТРУДОСПОСОБНОГО ВОЗРАСТА ПОСЛЕ КОМПЛЕКСНОЙ КОРРЕКЦИИ ИБС НА
ФОНЕ АНОМАЛЬНЫХ ОТХОЖДЕНИЙ КОРОНАРНЫХ АРТЕРИЙ**

For citation: F.O. Xasanjanova, J.A. Rizayev, E.N. Tashkenbayeva. REHABILITATION OF WORKING-AGE PATIENTS AFTER COMPREHENSIVE CORRECTION OF CORONARY ARTERY DISEASE IN THE PRESENCE OF ANOMALOUS ORIGIN OF THE CORONARY ARTERIES. Journal of cardiorespiratory research. 2026, vol 7, issue 2/1.

<http://dx.doi.org/10.26739/2181-0974/2026/7/2/1/19>**АННОТАЦИЯ**

Введение: на сегодняшний день наиболее важным считается терапия и реабилитация больных с ИБС в трудоспособном возрасте с аномалиями коронарных артерий (АКА), которая является актуальной проблемой современной кардиологии и реабилитологии. Аномальное отхождение коронарных артерий — это редкая врожденная аномалия анатомии коронарного русла, в основе которой лежит аномалия анатомии, а не функционального нарушения, которую **лекарственные средства не «исправляют»** — они воздействуют на симптомы или сопутствующие механизмы ишемии/аритмий, а не на саму аномалию, их роль — управление симптомами, сопровождением и рисками. Лечение АКА зависит от типа аномалии, тяжести симптомов и общего состояния пациента. В большинстве случаев, лечение включает в себя медикаментозную терапию, а в более сложных случаях - хирургическое вмешательство.

Цель: разработать методы реабилитации после комплексной коррекции ИБС у больных трудоспособного возраста на фоне аномальных отхождений коронарных артерий.

Материалы и методы исследования: в данном исследовании были включены 86 больных трудоспособного возраста в диапазоне от 20 до 60 лет, с ИБС на фоне аномальных отхождений КА. Средний возраст больных составил 43,8 лет, мужчины составили 51 (59,3%) больных, женщины 35 (40,7%) больных.

Результаты исследования: проведенное исследование, включавшее 86 пациентов в возрасте от 19 до 60 лет, среди которых мужчины составили 59,3%, а женщины — 40,7%, показало, что комплексная коррекция ИБС на фоне аномальных отхождений коронарных артерий в сочетании с поэтапной программой кардиореабилитации способствует уменьшению клинических проявлений ишемии, улучшению функционального состояния миокарда, повышению переносимости физических нагрузок, улучшению качества жизни и восстановлению трудоспособности у пациентов трудоспособного возраста.

Заключение: комплексная коррекция ИБС на фоне аномальных отхождений коронарных артерий в сочетании с поэтапной кардиореабилитацией обеспечивает улучшение клинико-функционального состояния, повышение физической работоспособности, улучшение качества жизни и восстановление трудоспособности у больных трудоспособного возраста. Полученные данные подтверждают целесообразность обязательного включения реабилитационных программ в систему послеоперационного ведения данной категории пациентов.

Ключевые слова: аномалия коронарных артерий, ИБС, реабилитация, трудоспособный возраст, эхокардиография и др.

Khasanjanova F.O.Associate Professor, Department
of Internal Medicine and Cardiology No. 2, PhD
Samarkand State Medical University,
Samarkand, Uzbekistan**Rizayev J.A.**

Rector of the Samarkand State Medical Institute
 Doctor of Medical Sciences, Prof.
 Samarkand, Uzbekistan
Tashkenbayeva E.N.
 Head of the Department of
 Internal Diseases and cardiology No2,
 Samarkand State Medical University,
 Doctor of Medical Sciences, Prof.,
 Samarkand, Uzbekistan

REHABILITATION OF WORKING-AGE PATIENTS AFTER COMPREHENSIVE CORRECTION OF CORONARY ARTERY DISEASE IN THE PRESENCE OF ANOMALOUS ORIGIN OF THE CORONARY ARTERIES

ABSTRACT

Introduction: Today, the therapy and rehabilitation of working-age patients with coronary artery disease (CAD) and anomalous coronary arteries (ACA) is considered of utmost importance, representing a pressing issue in modern cardiology and rehabilitology. An anomalous origin of the coronary arteries is a rare congenital anomaly of the coronary anatomy, which is based on an anatomical anomaly rather than a functional disorder. It cannot be "corrected" by medications; drugs only affect the symptoms or accompanying mechanisms of ischemia/arrhythmias, not the anomaly itself. Their role is to manage symptoms, associated conditions, and risks. The treatment for ACA depends on the type of anomaly, the severity of symptoms, and the patient's overall condition. In most cases, treatment includes drug therapy, and in more complex cases, surgical intervention.

Objective: To develop rehabilitation methods for working-age patients following comprehensive correction of CAD in the presence of an anomalous origin of the coronary arteries.

Materials and Methods: This study included 86 working-age patients, ranging from 20 to 60 years old, with CAD in the presence of an anomalous origin of the coronary arteries. The average age of the patients was 43.8 years; there were 51 (59.3%) men and 35 (40.7%) women.

Results: The study, which included 86 patients aged 19 to 60 (59.3% men and 40.7% women), demonstrated that comprehensive correction of CAD in the presence of an anomalous origin of the coronary arteries, combined with a phased cardiac rehabilitation program, leads to a reduction in the clinical manifestations of ischemia, an improvement in the functional state of the myocardium, increased exercise tolerance, an enhanced quality of life, and the restoration of work capacity in working-age patients.

Conclusion: Comprehensive correction of CAD in the presence of an anomalous origin of the coronary arteries, combined with phased cardiac rehabilitation, improves the clinical and functional state, increases physical performance, enhances quality of life, and restores the work capacity of working-age patients. The data obtained confirm the advisability of mandatory inclusion of rehabilitation programs in the postoperative management system for this patient category.

Keywords: anomalous coronary artery, coronary artery disease, rehabilitation, working age, echocardiography, etc.

Xasanjanova F.O.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti
 2-son ichki kasalliklar va kardiologiya
 kafedrası dotsenti, PhD,
 Samarqand, O'zbekiston

Rizayev J.A.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti rektori
 t.f.d., professori,
 Samarqand, O'zbekiston

Tashkenbayeva E. N.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti
 2-son ichki kasalliklar va kardiologiya
 kafedrası mudiri t.f.d., prof.
 Samarqand, O'zbekiston

MEHNATGA LAYOQATLI YOSHDAGI BEMORLARDA YUIKNI KORONAR ARTERIYANING ANOMAL CHIQISHLARI FONIDA KOMPLEKS KORREKSIDAN KEYINGI REABILITATSIYASI

ANNOTATSIYA

Kirish: bugungi kunda koronar arteriyalar anomaliyasiga (KAA) ega bo'lgan mehnatga layoqatli yoshdagi yurak ishemik kasalligi (YIK) bilan og'riqan bemorlarni davolash va reabilitatsiya qilish zamonaviy kardiologiya hamda reabilitologiyaning dolzarb muammosi sanaladi. Koronar arteriyalarning anomol joylashuvi — koronar tomirlar o'zani anatomiyasining kam uchraydigan tug'ma nuqsoni bo'lib, uning negizida funksional buzilish emas, aynan anatomik anomaliya yotadi. Dori vositalari bu nuqsonni "tuzata olmaydi" — ular anomaliyaning o'ziga emas, balki ishemiya/aritmia belgilari yoki unga yo'ldosh mexanizmlarga ta'sir ko'rsatadi. Ularning vazifasi simptomlarni, yo'ldosh holatlarni va xavflarni boshqarishdan iboratdir. KAA ni davolash anomaliya turiga, simptomlarning og'irlik darajasiga va bemorning umumiy ahvoriga bog'liq. Aksariyat hollarda davolash medikamentoz terapiyani, og'irroq holatlarda esa jarrohlik aralashuvini o'z ichiga oladi.

Maqsad: koronar arteriyalarning anomol chiqishi fonida mehnatga layoqatli yoshdagi bemorlarda YUIK kompleks korreksiyasidan keyin reabilitatsiya usullarini ishlab chiqish.

Materiallar va tadqiqot usullari: Ushbu tadqiqotga yurak ishemik kasalligi (YIK) va toj arteriyalari (TA) anomaliyasi bo'lgan, yoshi 20 dan 60 gacha bo'lgan mehnatga layoqatli 86 nafar bemor kiritildi. Bemorlarning o'rtacha yoshi 43,8 yoshni, ulardan 51 nafari (59,3%) erkaklar, 35 nafari (40,7%) ayollar edi.

Tadqiqot natijalari: 20 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan 86 nafar bemorni o'z ichiga olgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, koronar arteriyalarning anomol chiqishi fonida yurak ishemik kasalligini bosqichma-bosqich kardioreabilitatsiya dasturi bilan birgalikda kompleks davolash ishemiyaning klinik ko'rinishlarini kamaytirishga, miokardning funksional holatini yaxshilashga, jismoniy zo'riqishlarga chidamlilikni oshirishga, mehnatga layoqatli yoshdagi bemorlarda hayot sifatini yaxshilashga va mehnat qobiliyatini tiklashga yordam beradi.

Xulosa: Mehnatga layoqatli yoshdagi bemorlarda koronar arteriyalarning anomol joylashuvi fonida yurak ishemik kasalligini kompleks korreksiya qilish va bosqichma-bosqich kardioreabilitatsiya o'tkazish klinik-funksional holatning yaxshilanishini, jismoniy ish qobiliyatining o'rtishini, hayot sifatining yuksalishini hamda mehnat qobiliyatining tiklanishini ta'minlaydi. Olingan ma'lumotlar ushbu toifadagi bemorlarni operatsiyadan keyingi davrda kuzatish tizimiga reabilitatsiya dasturlarini majburiy kiritish maqsadga muvofiq ekanini tasdiqlaydi.

Kalit so'zi: koronar arteriyalar anomaliyasi, YUIK, reabilitatsiya, mehnatga layoqatli yosh, exokardiografiya va boshqalar.

Dolzarliligi. Yurak ishemik kasalligi aholining, shu jumladan mehnatga layoqatli yoshdagi shaxslarning o'limi, nogironligi va hayot sifatining pasayishida yetakchi sabablardan biri bo'lib qolmoqda [1, 2]. Koronar arteriyalarning anomol chiqishi fonida rivojlanadigan YUIK alohida klinik ahamiyatga ega. Nisbatan kam uchrashiga qaramay, bunday anomaliyalar muhim gemodinamik va prognostik ahamiyatga ega, chunki ular miokard ishemiyasi, ritm buzilishlari, yurak yetishmovchiligi va to'satdan yurak o'limi bilan bog'liq bo'lishi mumkin [3, 4].

So'nggi yillarda surunkali koronar patologiya va koronar arteriyalar anomaliyalarini tashxislash va jarrohlik yo'li bilan davolashda sezilarli yutuqlarga erishildi. Zamonaviy tavsiyalar surunkali koronar kasalligi bo'lgan bemorlarga individual yondashuv zarurligini va revaskulyarizatsiyadan keyin kompleks davolashning muhimligini ta'kidlaydi [2, 5]. Shu bilan birga, koronar arteriyalarning anomol chiqishi bo'lgan katta yoshli bemorlarda xavfning tabaqalanishi, aralashuvga ko'rsatmalar va operatsiyadan keyingi kuzatuvga oid hal etilmagan masalalar saqlanib qolmoqda [4, 5, 9].

Davolashning muhim bosqichi kardioreabilitatsiya hisoblanadi. Zamonaviy tadqiqotlarga ko'ra, koronar aralashuvlar va yurak operatsiyalaridan keyingi kardioreabilitatsiya dasturlari jismoniy zo'riqishlarga chidamlilikni, yurak-qon tomir tizimining funksional holatini va bemorlarning hayot sifatini yaxshilaydi [6, 7]. Bu, ayniqsa, mehnatga layoqatli yoshdagi bemorlar uchun ahamiyatli bo'lib, ularda davolash samaradorligi nafaqat klinik natija, balki ijtimoiy va kasbiy faollikning tiklanish tezligi bilan ham belgilanadi [6, 8].

Biroq, koronar arteriyalarning anomol chiqishi fonida YUIK kompleks korreksiyasidan keyin mehnatga layoqatli yoshdagi bemorlarni reabilitatsiya qilish masalalari hozirgi vaqtda yetarlicha yoritilmagan. Nashrlarning aksariyati surunkali koronar kasallikning umumiy jihatlariga yoki koronar arteriyalar anomaliyalarida jarrohlik taktikasiga bag'ishlangan bo'lib, ushbu toifadagi bemorlarda bosqichma-bosqich reabilitatsiya, jismoniy ish qobiliyatini tiklash, hayot sifati va mehnat qobiliyati haqidagi ma'lumotlar cheklangan darajada taqdim etilgan [4, 6, 8].

Shu munosabat bilan, koronar arteriyalarning anomol chiqishi fonida mehnatga layoqatli yoshdagi bemorlarda YUIKni kompleks davolashdan keyingi reabilitatsiya usullarini ishlab chiqish va takomillashtirish ham klinik, ham tibbiy-ijtimoiy nuqta nazardan dolzarb hisoblanadi [2, 4, 6].

Maqsad: koronar arteriyalarning anomol chiqishi fonida mehnatga layoqatli yoshdagi bemorlarda YUIKni kompleks korreksiyalashdan keyingi reabilitatsiya usullarini ishlab chiqish.

Tadqiqot materiallari va usullari: ushbu tadqiqotga 20 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan mehnatga layoqatli yoshdagi, KAning anomol ajralishi fonida YUIK bilan og'rigan 86 nafar bemor kiritilgan. Bemorlarning o'rtacha yoshi 43,8 yoshni tashkil etib, erkaklar 51 (59,3%) nafarni, ayollar 35 (40,7%) nafarni tashkil etdi. Tadqiqotda barcha bemorlarga umumiy klinik tekshiruvlar, EKG. Exo-KG, KAG, 6 minutlik yurish testi, veloergometriya.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqotga koronar arteriyalarning anomol chiqishi fonida yurak ishemik kasalligi bo'lgan, kasallikni kompleks davolashdan o'tgan mehnatga layoqatli yoshdagi 86 nafar bemor kiritilgan. Tekshirilganlarning yoshi 19 yoshdan 60 yoshgacha bo'lib, o'rtacha yosh 43,8±6,4 ni tashkil etdi. Jins tarkibi bo'yicha erkaklar ustunlik qildi va 51 (59,3%) bemorni, ayollar - 35 (40,7%) ni tashkil etdi. Shunday qilib, o'rganilayotgan guruh asosan yosh va o'rta mehnatga layoqatli yoshdagi shaxslar bilan ifodalangan bo'lib, bu ushbu toifadagi bemorlarni keyingi reabilitatsiya qilishning klinik va tibbiy-ijtimoiy ahamiyatini ta'kidlaydi.

Operatsiyadan keyingi davrda klinik va funksional holatni tahlil qilish reabilitatsiya bosqichlarida yurak-qon tomir tizimining asosiy ko'rsatkichlari, jismoniy ish qobiliyati va hayot sifatining ijobiy dinamikasini ko'rsatdi.

Operatsiyadan keyingi erta davrda bemorlarning aksariyatida anginoz sindromning chastotasi va ifodalanishining pasayishi kuzatildi. Jarrohlik davolashdan oldin 68 (79,1%) bemorda II-III funksional sinf stenokardiyasining klinik ko'rinishlari qayd etilgan, kompleks tuzatish va reabilitatsiya tadbirlaridan so'ng 59 (68,6%) bemorda I funksional sinfga o'tish yoki anginoz xurujlarning butunlay yo'qligi kuzatilgan. Shu bilan birga, qisqa muddatli nitratlarga bo'lgan ehtiyojning 61 (70,9%) dan 18 (20,9%) gacha pasayishi va instrumental tekshiruv ma'lumotlariga ko'ra miokard ishemiyasi epizodlari sonining kamayishi qayd etildi.

Kompleks reabilitatsiya dasturi fonida jismoniy zo'riqishga chidamlilikning sezilarli darajada oshishi aniqlandi. 6 daqiqalik yurish testi natijalariga ko'ra, reabilitatsiyaning stasionar va erta ambulator bosqichlari yakunida masofa 348,6±42,3 m dan 421,4±39,7 m gacha oshdi ($p < 0,05$). Veloergometriya yoki tredmil-test ma'lumotlariga ko'ra, yuklamaning chegaraviy quvvati 74,8 ± 12,6 Vt dan 96,2 ± 14,1 Vt gacha, sinamani bajarish davomiyligi 6,8 ± 1,4 daqiqadan 9,3 ± 1,6 daqiqagacha, shuningdek, miokard ishemiyasi belgilarining kechroq paydo bo'lishi kuzatildi. Bu, koronar zaxiraning tiklanishi va yurak-qon tomir tizimining moslashuv imkoniyatlari oshganidan dalolat beradi.

Exokardiografik tekshiruv yurak ichi gemodinamikasi yaxshilanganini namoyon etdi. Operatsiya va reabilitatsiya kursidan so'ng chap qorincha otish fraksiyasi 48,7 ± 5,2 % dan 55,9 ± 4,8 % gacha ortishi, oxirgi diastolik hajm 148,3 ± 18,6 ml dan 136,1 ± 16,9 ml gacha, oxirgi sistolik hajm esa 79,4 ± 12,7 ml dan 68,5 ± 11,4 ml gacha kamayishi, shuningdek, ayrim bemorlarda miokardning mahalliy qisqaruvchanlik disfunktsiyasi belgilarini susayishi tendensiyasi kuzatildi. Mazkur o'zgarishlar operatsiyadan keyingi davri asoratsiz kechgan bemorlarda yanada yaqqolroq namoyon bo'ldi.

Klinik holat baholanganda, ritm va o'tkazuvchanlik buzilishlari chastotasi 29,1 % dan 12,8 % gacha, hansirashga oid shikoyatlar 63,9 % dan 24,4 % gacha, yurak tez urishi 48,8 % dan 18,6 % gacha, umumiy holsizlik va tez charchash esa 76,7 % dan 31,4 % gacha kamaygani aniqlandi. Reabilitatsiya dasturi yakuniga kelib, bemorlarning aksariyati maishiy va me'yorlangan jismoniy yuklamalarni dastlabki darajaga nisbatan ancha yaxshi o'tkaza boshladi. Ahvolning yaxshilanishi arterial qon bosimining barqarorlashuvi va tinch holatdagi yurak qisqarishlari chastotasining daqiqasiga 78,4 ± 7,9 tadan 69,7 ± 6,2 taga kamayishi bilan kechdi.

Hayot sifati ko'rsatkichlarining tahlili salomatlikning jismoniy va psixomotivatsional tarkibiy qismlari bo'yicha ijobiy dinamikani ko'rsatdi. SF-36 so'rovnomasi ma'lumotlariga ko'ra, jismoniy faollik ko'rsatkichi 52,6 ± 8,4 ball dan 71,8 ± 7,9 ballgacha, hayotiy faollik ko'rsatkichi 46,9 ± 7,2 ball dan 68,4 ± 6,8 ballgacha, ijtimoiy moslashuv esa 49,3 ± 8,1 ball dan 73,1 ± 7,4 ballgacha oshgan ($p < 0,05$).

Shunday qilib, 19 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan 86 nafar bemorni o'z ichiga olgan (ularning 59,3 % i erkaklar, 40,7 % i ayollar) ushbu tadqiqot shuni ko'rsatdiki, koronar arteriyalarning anomol chiqishi fonidagi YIKni bosqichma-bosqich kardioreabilitatsiya dasturi bilan birgalikda kompleks korreksiya qilish ishemiyaning klinik ko'rinishlarini kamaytirishga, miokardning funksional holatini yaxshilashga, jismoniy yuklamalarga chidamlilikni oshirishga, shuningdek, mehnatga layoqatli yoshdagi bemorlarning hayot sifatini yaxshilash va mehnat qobiliyatini tiklashga yordam beradi.

Muhokama. Olingan natijalar shundan dalolat beradiki, koronar arteriyalarning anomol chiqishi fonida yurak ishemik kasalligi kompleks korreksiya qilinganidan so'ng mehnatga layoqatli yoshdagi bemorlarda bosqichma-bosqich reabilitatsiya dasturini qo'llash yaqqol ijobiy klinik-funksional samara bilan kechadi. Anginoz sindrom chastotasi va yaqqolligining pasayishi, jismoniy yuklamalarga tolerantlikning oshishi, yurak ichi gemodinamikasi va hayot sifati ko'rsatkichlarining yaxshilanishi operatsiyadan keyingi davrda kompleks tiklovchi davolashning yuqori samaradorligini ko'rsatadi.

Olingan ma'lumotlarning alohida ahamiyati o'rganilayotgan guruhning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. YUIKning odatiy kechishi bilan og'rikan bemorlardan farqli o'laroq, koronar arteriyalarning anomal chiqishi bo'lgan bemorlar diagnostik jihatdan ham, davolash va reabilitatsiya nuqtai nazaridan ham murakkabroq toifani tashkil etadi. Koronar oqimning anatomik xususiyatlari, miokardning surunkali ishemiyasi, jarrohlik yo'li bilan tuzatish zarurati va keyinchalik tiklanish davolashning barcha bosqichlarida individual yondashuvni talab qiladi. Shu munosabat bilan, klinik va funksional ko'rsatkichlarning ijobiy dinamikasi ushbu toifadagi bemorlarni operatsiyadan keyingi davolash standartiga maxsus ishlab chiqilgan reabilitatsiya choralarini kiritish maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, koronar arteriyalarning anomal chiqishi fonida mehnatga layoqatli yoshdagi bemorlarda YUIKni kompleks korreksiya qilishdan so'ng ishlab chiqilgan reabilitatsiya usullari klinik holatni yaxshilashga, yurak-qon tomir tizimining funksional zaxiralarni oshirishga, hayot sifati va mehnat qobiliyatini tiklashga yordam beradi. Bu ushbu toifadagi bemorlar uchun ixtisoslashtirilgan kardioreabilitatsiya dasturlarini yanada takomillashtirish va amaliyotga joriy etish zarurligini tasdiqlaydi.

Xulosalar. Koronar arteriyalarning anomal chiqishi fonida yurak ishemik kasalligi bilan og'rikan mehnatga layoqatli yoshdagi bemorlarda kasallikni kompleks korreksiya qilishdan so'ng klinik-funksional holatning ijobiy dinamikasi kuzatilib, bu anginoz

sindromining yaqqolli kamayishi, ishemik xurujlar chastotasi pasayishi va umumiy ahvolding yaxshilanishida namoyon bo'ladi. Kardioreabilitatsiya dasturini bosqichma-bosqich o'tkazish jismoniy zo'riqishga tolerantlikning ishonchli darajada oshishiga yordam beradi, bu esa 6 daqiqalik yurish testida masofaning uzayishi, zo'riqishning chegaraviy quvvati ortishi va zo'riqish sinamalarini bajarish davomiyligining oshishi bilan tasdiqlanadi. Reabilitatsiya tadbirlari fonida yurak ichi gemodinamikasi ko'rsatkichlarining yaxshilanishi, jumladan, chap qorincha otish fraksiyasining oshishi hamda yakuniy diastolik va yakuniy sistolik hajmlarning kamayishi kuzatiladi, bu miokardning funksional holati tiklanayotganidan dalolat beradi. Kompleks reabilitatsiya bemorlar hayoti sifatining jismoniy, psixoemotsional va ijtimoiy jihatlarini yaxshilaydi, shuningdek, xavotirlikni kamaytirishga va odatiy kundalik hamda kasbiy faoliyatga qaytishga bo'lgan ishonchni oshirishga yordam beradi. Koronar arteriyalarning anomal chiqishi fonida YUIKni kompleks korreksiya qilishdan so'ng mehnatga layoqatli yoshdagi bemorlarni operatsiyadan keyingi davrda kuzatishga reabilitatsiya tadbirlarini kiritish aksariyat bemorlarda mehnat qobiliyatini tiklashga ko'maklashadi va ularning tibbiy-ijtimoiy moslashuvi samaradorligini oshiradi. Reabilitatsiyaning eng yaqqol ijobiy samarasi jarrohlik korreksiyasidan so'ng tiklovchi davolashni erta muddatlarda boshlagan hamda medikamentoz terapiya, jismoniy faollik va turmush tarzini o'zgartirish bo'yicha tavsiyalarga rioya qilingan bemorlarda kuzatiladi.

Список литературы / References/Iqtiboslar:

1. World Health Organization. Cardiovascular diseases (CVDs).
2. Virani S.S., Newby L.K., Arnold S.V. et al. 2023 AHA/ACC/ACCP/ASPC/NLA/PCNA Guideline for the Management of Patients With Chronic Coronary Disease. *Circulation*. 2023.
3. Li K., Sun J., Xu Y. et al. Anomalous origin of the coronary artery in adults: anatomical characteristics and clinical significance. 2024.
4. Gaudino M., Krasuski R.A., Beerkens F.J. et al. Management of Adults With Anomalous Aortic Origin of the Coronary Artery: A Systematic Review and Critical Evaluation of the Evidence. *Journal of the American College of Cardiology*. 2023.
5. Lawton J.S., Tamis-Holland J.E., Bangalore S. et al. 2021 ACC/AHA/SCAI Guideline for Coronary Artery Revascularization. *Circulation*. 2022.
6. Subih M., Al Smadi A., Abuzaid A. et al. Exploring the Impact of Cardiac Rehabilitation Programs on Health-Related Quality of Life and Physiological Outcomes in Post-CABG Patients: A Systematic Review. 2024.
7. Araújo C.O. et al. Inspiratory Muscle Training in Phase 1 and 2 Postoperative Cardiac Rehabilitation: Systematic Review and Meta-Analysis. 2024.
8. Delimanoli E. et al. Cardiac Rehabilitation After Open Heart Surgery: A Systematic Review. 2024.
9. Mohamed J. Saadh, Faris Anad Muhammad, Abdulkareem Shareef, S. Renuka Jyothi, Priya Priyadarshini Nayak, Ashish Singh Chauhan, Siya Singla, Farida Khasanjanova, Hayder Najji Sameer, Ahmed Yaseen, Zainab H. Athab, Mohaned Adi Macrophage migration inhibitory factor (MIF): a Janus-faced cytokine in viral pathogenesis and host defense. *Immunologic Research* (2025) 73:160 <https://doi.org/10.1007/s12026-025-09694-7>
10. Khasanjanova, F.; Pulatova, K.; Ruzieva, A. Анализ клинического эффекта симвастатина у больных нестабильной стенокардией молодого возраста. *Kardiologija V Belarusi*. 2023 | Journal article. DOI: 10.34883/PI.2023.15.5.005